



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 182 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<i>Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<i>Omonova Nilufar Parda qizi</i>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<i>Xujanova Shaxina Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
<i>Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</i>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</i>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<i>Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</i>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<i>Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</i>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<i>V. Sh. Raximov</i>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
<i>Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</i>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
<i>Vasila Yusupova</i>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
<i>B. X. Sharopov</i>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
<i>Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</i>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<i>J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<i>S. A. Qarshiboyev</i>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<i>Suyunov Rustam Sadriddinovich</i>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
<i>Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</i>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<i>S. S. Qulmurodova</i>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<i>Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</i>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

O'G'IL BOLALARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING TIZIMLI-PEDAGOGIK MODEL: NAZARIYA, METODOLOGIYA VA AMALIYOT

Islamova Fotima Shamsiddinovna

Xalqaro Nordik universiteti, pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-3087-4766

Annotatsiya: Mazkur maqola o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirish muammosiga bag'ishlangan. Tadqiqotda oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, shaxsiy, faoliyatga oid, aksiologik) aniqlashtirilgan. Shaxsga yo'naltirilgan integrativ pedagogik model ishlab chiqilgan bo'lib, unda oila, maktab va mahalla hamkorligi, Sharq mutafakkirlari merosi hamda milliy qadriyatlardan foydalanish, shuningdek, empatik muloqot va konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan texnologik yondashuv o'z ifodasini topgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik usullar (Student mezon, Piron mezon) yordamida tahlil qilingan bo'lib, ishlab chiqilgan modelning samaradorligi empirik jihatdan isbotlangan (o'rtacha o'zlashtirish 75,3 foizni tashkil etgan). Maqola natijalari umumta'lim maktablari, oilaviy maslahat markazlari va pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: o'g'il bolalar tarbiyasi, mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, pedagogik model, milliy qadriyatlar, Sharq mutafakkirlari merosi, kompetensiyaviy yondashuv, gender ijtimoiylashuvi, otalik instituti, tajriba-sinov ishlari, matematik-statistik tahlil.

Abstract: This article is devoted to the problem of improving the pedagogical foundations of preparing adolescent boys for independent family life. The research systematically analyzes the theoretical and methodological foundations of family life readiness competence and clarifies its structural components (motivational, cognitive, personal, activity-based, and axiological). A person-centered integrative pedagogical model has been developed, reflecting the cooperation of family, school, and community, the use of the heritage of Eastern thinkers and national values, as well as a technological approach aimed at developing empathic communication and constructive behavior. The results of the pedagogical experimental work were analyzed using mathematical-statistical methods (Student's criterion and Pearson's criterion), and the effectiveness of the developed model was empirically proven (the average mastery level reached 75.3 percent). The findings of the article are of practical importance for general education schools, family counseling centers, and the system of pedagogical personnel training.

Key words: education of boys, preparation for independent family life, pedagogical model, national values, heritage of Eastern thinkers, competency-based approach, gender socialization, fatherhood institution, experimental work, mathematical-statistical analysis.

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме совершенствования педагогических основ подготовки подростков мужского пола к самостоятельной семейной жизни. В исследовании системно проанализированы теоретико-методологические основы компетенции готовности к семейной жизни, а также уточнены её структурные компоненты (мотивационный, когнитивный, личностный, деятельностный, аксиологический). Разработана личностно-ориентированная интегративная педагогическая модель, отражающая сотрудничество семьи, школы и махалли, использование наследия восточных мыслителей и национальных ценностей, а также технологический подход, направленный на развитие эмпатического общения и конструктивного поведения. Результаты педагогических опытно-экспериментальных работ были проанализированы с использованием математико-статистических методов (критерий Стьюдента, критерий Пирсона), а эффективность разработанной модели была эмпирически доказана (средний показатель усвоения составил 75,3 %). Результаты статьи имеют практическое значение для общеобразовательных школ, семейных консультативных центров и системы подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: воспитание мальчиков, подготовка к самостоятельной семейной жизни, педагогическая модель, национальные ценности, наследие восточных мыслителей, компетентностный подход, гендерная социализация, институт отцовства, опытно-экспериментальная работа, математико-статистический анализ.



KIRISH

Jahonda oila institutining transformatsiyasi, oilaviy munosabatlar barqarorligining pasayishi hamda erkaklarning oiladagi mas'uliyatiga oid muammolar yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga ongli ravishda tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentyabrdagi 70-sessiyasida qabul qilingan "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi" da belgilangan sifatli ta'lim, gender tenglik va ijtimoiy barqarorlikka oid maqsadlar ushbu muammoning global ahamiyatini tasdiqlaydi. O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-son¹ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli² "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etishni taqozo etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasiga kelsak, mahalliy olimlardan M. Inomova, O. Musurmonova, A. Munavvarov, Sh. Shodmonova, M. Quronovlar tomonidan oila tarbiyasida milliy va ma'naviy qadriyatlarining o'rni, O. Jamoliddinova, S. Nishonova, M. Xalimatov tomonidan o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning falsafiy jihatlari, M. Davletshin, V. Karimova, B. Umarov, G'. Shoumarov, M. Fayziyevlar tomonidan mazkur muammoning psixologik asoslari yoritilgan.

MDH olimlaridan G. Volkov, I. Grebennikov, A. Izmaylova, E. Pevsova, V. Slastenin, B. Mirenskiy, S. Akutina, Yu. Kolesnichenko, R. Umergalin va boshqalar oilaviy tarbiya hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini tadqiq etgan.

Xorijiy olimlardan Michael E. Lamb (ota modeli), Natasha J. Cabrera (otalarning ishtiroki va madaniy-ijtimoiy kontekst), Nancy E. Hill (pedagogik muhitda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish), Linda J. Luecken (mustaqil hayotga tayyorlikning uzoq muddatli natijalari) kabi tadqiqotchilar ushbu sohaga muhim hissa qo'shgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish, ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda kompleks metodik yechimlarni ishlab chiqish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Ushbu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy-pedagogik asoslarini tizimli tahlil qilish, shaxsga yo'naltirilgan integrativ modelni ishlab chiqish hamda uning samaradorligini eksperimental-statistik jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila sivilizatsion taraqqiyot jarayonida shakllangan eng qadimiy va barqaror ijtimoiy institut sifatida jamiyatning demografik, ma'naviy va madaniy uzviyligini ta'minlovchi asosiy tizim hisoblanadi. Aristotel oilani "davlatning birlamchi hujayrasi" sifatida talqin etgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari oilani nafaqat ijtimoiy birlik, balki ma'naviy kamolot maktabi sifatida ham baholaganlar.

Abu Nasr Forobiy jamiyatning fazilatli bo'lishini oiladagi axloqiy muhit bilan uzviy bog'laydi. Ibn Sino oilaviy boshqaruvda ongli rahbarlik, adolat, mas'uliyat va ma'naviy yetuklikni barqarorlikning tayanch omili deb hisoblaydi hamda erkakning mas'uliyatini oilaviy tizim muvozanatini saqlovchi asosiy omil sifatida asoslaydi.

Zamonaviy pedagogik nazariyada mustaqillik shaxsning o'z hayot strategiyasini qurish, qaror qabul qilish va javobgarlikni zimmasiga olish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. Oilaviy kontekstda ushbu tushuncha iqtisodiy, axloqiy, psixologik va ijtimoiy mas'uliyat integratsiyasini talab qiladi.

Gender nazariyasi va erkaklik tadqiqotlari yo'nalishida R. Connell "Gegemonik erkaklik" konsepsiyasida erkaklikning ijtimoiy konstruksiya ekanligini asoslaydi ^[1].

M. Kimmel esa zamonaviy erkaklik inqirozi fenomenini tavsiflab, identitetning beqarorlashuvini ko'rsatadi ^[2]. Ushbu jarayon o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarda oiladagi rolning noaniqligi, mas'uliyatni kechiktirish, oilaviy qadriyatlarga nisbatan ambivalent munosabat kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

Psixosotsial rivojlanish nazariyasida Erik Erikson o'spirinlik davrini "identitetga qarshi rol noaniqligi" bosqichi sifatida tavsiflaydi ^[3].

Ijtimoiy-kognitiv yondashuv doirasida Albert Bandura erkaklik va oilaviy rollarning modellashtirish hamda kuzatish orqali egallanishini ilmiy jihatdan asoslaydi ^[4].

Michael E. Lamb va Joseph H. Pleck tadqiqotlari otaning faol va sifatli ishtiroki o'g'il bolalarda empatiya, ijtimoiy javobgarlik va mas'uliyat hissining yuqori darajada shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi ^[5].

1 <https://lex.uz/docs/-5193551>

2 <https://lex.uz/docs/-5841063>

Axloqiy rivojlanish nazariyasida Lawrence Kohlberg mas'uliyat hissining shakllanishi shaxsning axloqiy ong darajasi bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi^[6].

O'zbek pedagogik tafakkurida erkak tarbiyasi masalasi qadimdan millat istiqboli, jamiyat barqarorligi va davlat qudrati bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida erkak shaxsining ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi va mas'uliyati jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e'tirof etilgan.

Jadid ma'rifatchilaridan Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy erkak tarbiyasini millat uyg'onishi bilan bog'lagan.

O. Musurmonova o'z ilmiy ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarini xalqimizning azaliy an'analari, udumlari, tili, dini va ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, sabr-toqat, adolat, insonparvarlik hamda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan^[7].

R. Abdullayeva o'spirinlarni oilaviy hayotga tayyorlash asosida istiqbolga sadoqatli, har tomonlama barkamol hamda jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi^[8].

Psixolog olimlarning fikrlariga ko'ra, o'spirin shaxsining shakllanishiga ijtimoiy omillar (umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tish, mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish, jismoniy hamda aqliy imkoniyatlarning o'sib borishi) va biologik omillar (jinsiy yetilishning boshlanishi, barcha a'zolarining jismoniy rivojlanishi) ta'sir ko'rsatadi [9].

Tadqiqotda o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda milliy an'analar manbalari tizimlashtirilgan bo'lib, ularga o'zbek xalq og'zaki ijodi (folklor), milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlar, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy musiqa hamda qo'shiqchilik san'ati, tasviriy san'at, tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik, xalq raqs san'ati hamda xalq tabobati kiradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil oilaviy hayotga tayyorgarlikni integrativ kompetensiya sifatida talqin qilish metodologik jihatdan asosli hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish), empirik (kuza-tish, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik tajriba-sinov) hamda matematik-statistik (Styudent mezoni, Piron mezoni) usullardan foydalanilgan. Tadqiqot obyekti sifatida o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilangan.

Tajriba-sinov ishlariga Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 2-, 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari, Toshkent viloyati Ohangaron tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Yakkabog' tumani 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda Boysun tumani 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-, 10-, 11-sinf o'quvchilaridan 350 nafar respondent tanlab olingan.

Tajriba guruhida 180 nafar, nazorat guruhida esa 170 nafar o'quvchi ishtirok etgan.

Tadqiqot 2021–2025-yillarda uch bosqichda amalga oshirilgan:

I bosqich (2021–2022-o'quv yili) – aniqlashtiruv bosqichi;

II bosqich (2022–2023-o'quv yili) – shakllantiruv bosqichi;

III bosqich (2023–2025-o'quv yili) – yakunlovchi va umumlashtiruvchi bosqich.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi.

Model quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik yondashuvlar – tizimli-faoliyatli, pragmatik, ijtimoiy-madaniy;
- o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash omillari – sheriklik xarakteridagi omillar, ijtimoiy tabiat omillari, shaxsiy rivojlanish omillari, uslubiy omillar;
- takomillashtirish vositalari – oila-maktab hamkorligi, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga doir ommaviy axborot vositalari;



- takomillashtirish usullari – vaziyat tahlili, aqliy hujum, diagnostika, intervyu, loyihalar, keys usuli, model-lashtirish;
- takomillashtirish shakllari – interfaol ma'ruza, videoma'ruza, davra suhbat, trening, seminar, master-klass;
- tayyorlash mezonlari – intellektual-ijodiy, ehtiyojli-faoliyatli, shaxsiy qiziqish, an'anaviylik;
- tayyorlash darajalari – past, o'rta, yuqori.

Tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotidan foydalanishning quyidagi yo'nalishlari belgilangan:

1. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi jamiyat komilligi shaxs komilligi bilan belgilanadi degan g'oya asosida o'g'il bolalarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish;
2. Ibn Sinoning "Tadbir ul-manozil" asaridagi oilani kichik jamiyat sifatida talqin qilish va urning vazifalarini belgilash (oilani moddiy ta'minlash, farzand tarbiyasida yetakchi bo'lish, axloqiy me'yorlarni saqlash) haqidagi g'oyalardan foydalanish;
3. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi "mard" tushunchasi, ya'ni oilasi va el-yurt oldidagi javobgarlikni ongli ravishda his etuvchi shaxs g'oyasini singdirish;
4. Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi ota-ona haqqini bilish, farzandlarga bilim, ta'lim-tarbiya va hunarni meros qilib qoldirish zarurligi haqidagi qarashlarni amaliyotga tatbiq etish;
5. Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi oila millatning asosi, erkak esa oilaning ma'naviy rahbari ekanligi haqidagi qarashlarni o'quv-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish.

O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishning quyidagi yo'nalishlari belgilangan:

- xalq og'zaki ijodi namunalari (maqollar, ertaklar, dostonlar, allalar, yor-yorlar) orqali oilaviy qadriyatlarni singdirish;
- milliy urf-odat va marosimlar (beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, kuyov salom) vositasida oilaviy hayotga tayyorlash;
- islom ta'limotidagi oila, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar hamda nikoh odobi haqidagi qarashlardan foydalanish;
- xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi orqali mehnatsevarlik va kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish;
- milliy o'yinlar orqali jismoniy baquvvatlik, chaqqonlik va jasurlikni tarbiyalash.

Tajriba-sinov ishlari 2020–2023-yillarda olib borilgan bo'lib, unda 350 nafar o'quvchi ishtirok etgan. Tajriba guruhida 180 nafar, nazorat guruhida esa 170 nafar o'quvchi qatnashgan.

1-jadval: O'spirin yoshidagi o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajalari (tajriba-sinovdan oldin/keyin)


No	Mezonlar	Tajriba guruhi (180 nafar)	Nazorat guruhi (170 nafar)	Faq (%)
1	O'quvchining mustaqil hayotga munosabati	6/64	8/22	+42
2	Mustaqil oilaviy hayotni idrok etish (oila an'analari mazmunini anglash)	6/70	6/20	+50
3	Tayyorgarlik jarayoni va urf-odatlar, milliy qadriyatlar	2/72	2/22	+50
4	Erishiladigan natijalar ("oila uchun" va "boshqalar uchun")	8/80	6/30	+50
5	O'qishdan tashqari vaqtda milliy an'analarga munosabat va ehtiyojlar	3,33/41,33	4,66/14,66	+26,67
6	Mustaqil oilaviy hayot "mexanizmi"ni yaratish	3,33/40	3,33/12	+28
7	Istiqbolli reja tuzish	-/42,66	-/14,66	+28
8	Mustaqil oilaviy hayotni kengroq doirada o'rganish	-/33,33	-/13,33	+20

2-jadval: O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajalari (to'garak mashg'ulotlari misolida)

No	Mezonlar	Tajriba guruhida (tajriba-sinovdan oldin/keyin)
1	O'quvchining mustaqil hayotga munosabati	74/86,66
2	Oila an'analari mazmunini anglash	80/84
3	Tayyorgarlik jarayoni va urf-odatlar, milliy qadriyatlar	78,66/80
4	Erishiladigan natijalar ("mustaqil oilaviy hayot uchun" va "boshqalar uchun")	76,66/85,33
5	Milliy an'analarga munosabat va ehtiyojlar	85,33/89,33
6	Mustaqil oilaviy hayot "mexanizmi"ni yaratish	76,66/81,33
7	Istiqbolli reja tuzish	78,66/86,66
8	Mustaqil oilaviy hayotni kengroq doirada o'rganish	76,66/80
9	Mustaqil oilaviy hayot "mexanizmi"ni yaratish	73,33/80

To'garak mashg'ulotlarida oltita mezonli ko'rsatkich asosida oilani chuqur o'rganish ("O'g'il bola – oila qo'rg'oni" to'garagida mualliflik dasturi bo'yicha) samarali natijalarni ko'rsatdi. Barcha mezonlar bo'yicha o'quvchilarning 80 foizi va undan ortig'i ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi:

Oila mezonlari bo'yicha ijobiy natijalar



1-rasm: Oila mezonlari bo'yicha ijodiy natijalar

Tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalarni solishtirish maqsadida matematik-statistik tahlil o'tkazildi. Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 2,26 ballni, nazorat guruhida esa 1,79 ballni tashkil etdi.

Styudent mezoni bo'yicha tahlil:

$T_{x,y} = 6,1 > 1,96$ (kritik nuqta). Demak, bosh o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi nolinch gipoteza rad etiladi. 95% ishonchlilik bilan aytish mumkinki, tajriba guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi ko'rsatkichlardan yuqori bo'ladi.

Pirson mezoni (Xi-kvadrat) bo'yicha tahlil:

$\chi^2_{sup} = 31,87 > 6,1 = \chi^2_{sup} < 0,95 > (2)$. Xi-kvadrat taqsimot kritik nuqtadan katta bo'lgani uchun nolinch gipoteza rad etildi. Bu tajriba va nazorat guruhlar taqsimotlari o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi.

Ishonchli intervallar:

Tajriba guruhi uchun ishonchli interval: $2,26 \pm 0,08$ (2,18 dan 2,34 gacha)

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval: $1,79 \pm 0,10$ (1,69 dan 1,89 gacha)

Ishonchli intervallar ustma-ust tushmaganligi tajriba guruhidagi o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori ekanligini tasdiqlaydi.



Sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligini baholash mezon: $K_{s_s} = 2,26/1,79 = 1,26 > 1$

Bilish darajasini baholash mezon: $K_{s_b} = 2,26 - 1,79 = 0,47 > 0$

3-jadval: Statistika tahlil natijalari (Eksperimental model samaradorligi)

№	Statistik ko'rsatkich	Hisoblangan qiymat	Mezonga nisbati	Talqin
1	Student t-mezon	$T_{x,y} = 6.1$	$6.1 > 1.96$	Nol gipoteza rad etildi
2	Pirson χ^2 mezon	31.87	$31.87 > 6.1$	Taqsimotlar orasida sezilarli farq mavjud
3	Ishonchli intervallar	Tajriba = 2.26 ± 0.08 Nazorat = 1.74 ± 0.10	Interval kesishmaydi	O'rtacha ko'rsatkichlarda ustunlik bor
4	Sifat ko'rsatkichlari	$K_s = 1.26$ $K_b = 0.47$	$K_s > 1$ $K_b > 0$	Sifat o'sishi ijobiy dinamikada

Bu ko'rsatkichlar tajriba guruhidagi o'zlashtirish darajasi nazorat guruhidagi o'zlashtirish darajasidan yuqori ekanligini hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ko'p omilli, tizimli va strategik pedagogik muammo sifatida talqin etilishi zarur. Mazkur jarayon shaxsning biologik voyaga yetishi bilan bir qatorda, uning identitetining shakllanishi, gender ijtimoiylashuvi, axloqiy ongining rivojlanishi va aksiologik qadriyatlarni o'zlashtirishi bilan uzviy bog'liq.

O'spirin yoshdagi o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash erkaklik identiteti, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy kompetensiya va aksiologik qadriyatlar integratsiyasini ta'minlovchi maqsadli, tizimli hamda uzluksiz pedagogik jarayon bo'lishi kerak. Mazkur ta'rif bir necha muhim metodologik jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

- 1. Maqsadlilik** – mustaqil oilaviy hayotga tayyorgarlik o'z-o'zidan shakllanadigan hodisa emas, balki rejalashtirilgan, ilmiy asoslangan va diagnostik tizimga ega pedagogik ta'sir natijasidir.
- 2. Tizimlilik** – o'g'il bolalarda oilaviy mas'uliyat faqat axloqiy tarbiya orqali emas, balki kognitiv bilimlar, emosional-regulyativ ko'nikmalar, ijtimoiy tajriba va iqtisodiy kompetensiyalar integratsiyasi asosida shakllanadi.
- 3. Uzluksizlik** – oilaviy hayotga tayyorgarlik o'spirinlik davrida boshlanib, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va keng jamoatchilik hamkorligida davom etadigan jarayondir.
- 4. Integrativ xarakter** – erkaklik identiteti, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy kompetensiya o'zaro bog'liq holda shakllangandagina mustaqil oilaviy rolning ravishda qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari Michael E. Lamb va Joseph H. Pleck tadqiqotlarini tasdiqlaydi: otaning faol ishtiroki o'g'il bolalarda empatiya, ijtimoiy javobgarlik va mas'uliyat hissining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Erik Erikson va Lawrence Kohlberg nazariyalarining amaliy tasdig'i sifatida identitet barqarorligi hamda axloqiy ong rivoji o'g'il bolalarning oilaviy hayotga tayyorligining muhim omillari ekanligi aniqlandi.

O'zbek pedagogik tafakkurida erkak tarbiyasi masalasi qadimdan millat istiqboli bilan bog'liq holda talqin etilgan. Al-Farabi, Ibn Sina, Alisher Navoiy asarlaridagi qarashlar zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilinganda, o'g'il bolalarda milliy o'zlikni anglash, oilaviy qadriyatlarga sadoqat va mas'uliyat hissi kabi fazilatlar samarali shakllanadi. Jadid ma'rifatchilarining erkak tarbiyasini millat uyg'onishi bilan bog'lagan g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar va Sharq mutafakkirlari merosiga asoslangan pedagogik model an'anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Xususan, xalq og'zaki ijodi namunalari (maqollar, ertaklar, dostonlar) orqali oilaviy qadriyatlarni singdirish, milliy urf-odat va marosimlar vositasida oilaviy hayotga tayyorlash, islom ta'limotidagi oila odobi haqidagi qarashlardan foydalanish o'g'il bolalarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'g'il bola – oila qo'rg'oni" to'garagi dasturi doirasida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida o'quvchilarning oilaviy hayotga qiziqishi, oila an'analari mazmunini anglash darajasi hamda milliy qadriyatlarga munosabati sezilarli darajada oshgan. Bu esa o'qishdan tashqari mashg'ulotlarning o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Matematik-statistik tahlil natijalari ishlab chiqilgan modelning samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi – 2,26 ball, nazorat guruhidagi ko'rsatkich esa – 1,79 ballni tashkil etdi. Ishonchli intervallarning ustma-ust tushmasligi va sifat ko'rsatkichlarining ($K_{s_s}=1,26$; $K_{s_b}=0,47$) me'yoriy talablardan yuqori ekanligi tajriba-sinov ishlari samaradorligini isbotlaydi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan pedagogik model, texnologik tizim, diagnostik vositalar hamda metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish, oila institutini mustahkamlash va o'g'il bolalarda oilaviy mas'uliyat hamda ijtimoiy rolni anglash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammosi ko'p omilli, tizimli va strategik pedagogik muammo bo'lib, u erkaklik identiteti, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy kompetensiya hamda aksiologik qadriyatlar integratsiyasini ta'minlovchi maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayonni talab etadi. Oilaviy hayot kompetensiyasining tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, shaxsiy, faoliyatga oid, aksiologik) va mezonlari (motivatsion-zaruriy, kognitiv-faol, hissiy-qiy-matli, shaxsiy-refleksiv) aniqlashtirilgan bo'lib, ular o'g'il bolalarning mustaqil oilaviy hayotga tayyorlik darajasini baholash imkonini beradi.

O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shaxsga yo'naltirilgan integrativ pedagogik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda pedagogik yondashuvlar, omillar, vositalar, usullar, shakllar, mezonlar va darajalar tizimli ravishda ifodalangan. Model oila, maktab va mahalla hamkorligi, Sharq mutafakkirlari merosi hamda milliy qadriyatlardan foydalanish, shuningdek, empatik muloqot va konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan texnologik yondashuvni o'z ichiga oladi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti – Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni, Alisher Navoiy, Kaykovus, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy qarashlari hamda milliy qadriyatlar (xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, islom ta'limoti, xalq amaliy san'ati) o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ulardan tizimli foydalanish o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarga sadoqat, mas'uliyat va milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan modelning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida o'g'il bolalarning mustaqil oilaviy hayotga tayyorlik darajasi barcha mezonlar bo'yicha sezilarli darajada oshgan (o'rtacha 42-50 % ga).

Matematik-statistik tahlil (Styudent mezoni va Pirson mezoni) tajriba hamda nazorat guruhlarini o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi:

$(T_{x,y} = 6,1 > 1,96; \chi^2 = 31,87 > 6,1)$.

O'qitish samaradorligini baholash mezoni va bilish darajasini baholash mezoni quyidagicha aniqlandi:

$(K_s = 1,26) (K_b = 0,47)$

Mazkur natijalar tajriba guruhidagi o'zlashtirish darajasi nazorat guruhidagidan yuqori ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Tarbiya", "Odobnoma", "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" fanlari mazmuniga o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan maxsus mavzularni kiritish hamda ularda milliy qadriyatlar va Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishni kengaytirish;
- maktablarda "O'g'il bola – oila qo'rg'oni" to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularning dasturini takomillashtirish, to'garak mashg'ulotlarida interfaol metodlardan (vaziyat tahlili, aqliy hujum, rolli o'yinlar, treninglar) keng foydalanish;
- ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish maqsadida "Ota-onalar universiteti" yoki "Ota-onalar maktabi" tizimini joriy etish, ayniqsa, otalarning o'g'il bolalar tarbiyasidagi rolga alohida e'tibor qaratish;
- o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini tashkil etish hamda ularni milliy qadriyatlar va Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish metodikasi bilan qurollantirish;
- oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish, mazkur hamkorlik doirasida o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan qo'shma tadbirlar (uchrashuvlar, tanlovlar, suhbatlar, amaliy mashg'ulotlar) tizimini yo'lga qo'yish;
- o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha metodik qo'llanmalar, videodarsliklar hamda elektron ta'lim resurslarini yaratish va amaliyotga joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 31-dekabrda PQ-820-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5193551>



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-iyuldagi 422-son Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4885018>
4. Connell R. *Masculinities*. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 2005.
5. Kimmel M.S. *The Gendered Society*. – New York: Oxford University Press, 2011.
6. Erikson E. *Identity: Youth and Crisis*. – New York: Norton, 1968.
7. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, 1977.
8. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида тарбиялашнинг педагогик асослари: дис. ... пед. фан. ном. – Т., 2001. – 137 б.
9. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: ped. fan. dokt. ... diss. – Т., 1998. – 316 б.
10. Jamoliddinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: avtoref. ... ped. fan. dok. – Т., 2015. – 86 б.
11. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: o'quv qo'llanma. – Т., 2006. – 142 б.
12. Inomova M.O. Oila va oilaviy tarbiya. – Т., 2000. – 120 б.
13. Гребенников И.В. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – 560 б.
14. Kabir S.M.S., Akter F. Impact of family on adolescent development // *Bangladesh Journal of Psychology*. – 2014. – Vol. 18. – P. 123-135.
15. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 112 б.
16. Kaykovus. Qobusnoma / Nashrga tayyorlovchilar: Dolimov S., Dolimov U. – Т.: O'qituvchi NMIU, 2006. – 208 б.
17. Fitrat A. Oila. – Т.: Ma'naviyat, 1998. – 112 б.
18. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild: Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiyalar hayoti, dramalar, sayohat xotiralari. – Т.: Ma'naviyat, 1998. – 304 б.
19. Islamova F.Sh., Abduqunduzova G.A. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb vazifalari // *International Conference on Economics, Finance, Banking and Management*. – 2025-06-23. – B. 140-146.
20. Fayazova F.S.H., Otajonova O.A., Islamova F.S.H. The role of art therapy in the formation of healthy living skills in adolescents.
21. Islomova F., Fayozova F. Family traditions in vocational guidance: A guarantee of preparing young people for independent living // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Vol. 11(10). – P. 34-38.
22. Sh I.F., Vaniyan S.B. The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches // *Current Research Journal of Pedagogics*. – 2021. – Vol. 2(12). – P. 162-165.
23. Islamova F. "Sun'iy intellekt davrida ta'lim va ijtimoiy fanlar: bilimdan kompetensiyaga o'tishning yangi modeli" // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. – 2025-12-02. doi:10.5281/zenodo.18103203.
24. Vokhidova N.K., Khalikova Z.M., Islamova F.S., Abdulkhayeva M.B. Organization of the Educational Process in Primary Education with the Participation of Artificial Intelligence // *Educational Administration: Theory and Practice*. – 2024. – Vol. 30(4). – P. 1906-1909.
25. Xabibullayevna V.N., Mirakbarovna F.D., Mirshadmanovna X.Z., Shamsuddinovna I.F., Saydullayevich N.M.B.R., Sayfutdinqizi F.K. Application of game technologies in education: In the context of Uzbekistan // *Lex Localis: Journal of Local Self-Government*. – 2025. – Vol. 23.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.